Mirzaev Ozod Furkatovich	
ЛЕКСИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ КОМПОНЕНТ ПРОДУКТИВНОЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ	824
Киличева Феруза Бешимовна	
MODERN MECHANISMS FOR MONITORING REGIONAL DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF DIGITAL ECONOMY	828
Karimova Shirin Zokhid qizi	



АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ МЕТОДЫ КРЕДИТНОГО СКОРИНГА ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ БЕЗ БАНКОВСКОЙ ИСТОРИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	833
Шухратова Мадинабону Икром кизи	
SHAHAR EKOLOGIYASI: SHAHAR EKOTIZIMLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH	841
Erkiniva Mukarram Olimjon qizi	
CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	845
Abdug'aniyev Oybek Akmaljon o'g'li	
KUZATUV KENGASHI XUSUSIYATLARINING KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: NAZARIY VA KONSEPTUAL YONDASHUV	850
Jumayeva Go'zal Sherxon qizi	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH NATIJALARI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MUHIM AMALIY AHAMIYAT	854
Sattorov Firdavs Ziyodullayevich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI	858
Abduholikov Kamoldin Mahammadjonovich	
SANOAT KORXONALARINING HUDUDLAR KESIMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI STATISTIK TAHLIL QILISH	862
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING EKOLOGIK JIHATLARI	867
Qodirjonov Adxamjon Muxtorjon o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIALASHTIRISHNING XALQARO MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	872
Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna	
SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYA JARAYONINING XUSUSIYATLARI	877
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	884
Kadirova L.G.	
MAIN DIRECTIONS FOR DEVELOPING SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN THE REGION	887
Nasretdinova Farangis Odilovna	
THE IMPORTANCE OF MARKETING COMMUNICATIONS IN THE SERVICES SECTOR	895
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH — ICHKI TALABNI RAG'BATLANTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI	900
Mustafoev G'olib Sultonmurodovich, Abruyev Abdumalik Oynazarovich	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA ULARNI QO'LLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	906
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
KORXONADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	911
Salimova Husniya Rustamovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA	918
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIVAVIY MAHSULOTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI	926
Rasulova Dilfuza Valiyevna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH VA MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING DINAMIKASI	932
Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FOYDALANUVCHI SADOQATINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING VA NEYROMARKETING MEXANIZMI SIFATIDA GEYMIKATSIYA ELEMENTLARINI QO'LLASH: DODO PIZZA MOBIL ILOVASI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL	937
Yuldashev Jamshid Abrarovich, Daminova Nilufar Bahrom qizi	



KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	945
Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	948
Murodova Zilola Asatulla qizi	
KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, SHAKLLARI, TURLARI VA YUZAGA KELISH OMILLARI.....	952
Abdullayev Shavkat Nasriddinovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	959
Yaqubova Nodira Olim qizi	
РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	964
Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срожиддинова Зарина Хайриддиновна	
KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....	970
Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI	977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI	983
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....	988
Anvarova Lobarxon	
TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT	992
J.Kamalova	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	



DAVLATNING IQTISODIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJIRIBALARDAN FOYDALANISH

Karimov Ulugʻbek Mirzajon oʻgʻli

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiyot nazariya” kafedrası

Iqtisodiyot nazariyasi yoʻnalishi

2-kurs tayanch doktoranti

Email: ulugbekkarimov0603@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlatning iqtisodiy siyosatini takomillashtirishda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ilgʻor tajribalaridan foydalanish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, yashil iqtisodiyotga oʻtish, investitsion muhitni yaxshilash, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish boʻyicha xalqaro tajribalar oʻrganilgan. Tadqiqot natijalariga koʻra, iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotda raqobat muhitini kengaytirish, innovatsion faoliyatni qoʻllab-quvvatlash hamda ekologik barqarorlikni taʼminlash muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Shuningdek, Oʻzbekiston iqtisodiy siyosatini takomillashtirish boʻyicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: davlat iqtisodiy siyosati, yashil iqtisodiyot, iqtisodiy islohotlar, xalqaro tajriba, investitsiya muhiti, raqamli iqtisodiyot, davlat-xususiy sheriklik, innovatsiya, iqtisodiy barqarorlik, makroiqtisodiy siyosat.

Abstract. This article analyzes the issues of using the best practices of developed and developing countries in improving the state's economic policy from a scientific, theoretical and practical perspective. In particular, international experiences in state regulation of the economy, transition to a green economy, improvement of the investment climate, development of the digital economy, and expansion of public-private partnership are studied. According to the results of the study, it is substantiated that in improving economic policy, deepening institutional reforms, expanding the competitive environment in the economy, supporting innovative activities, and ensuring environmental sustainability are of great importance. Also, practical proposals and recommendations for improving the economic policy of Uzbekistan are developed.

Key words: state economic policy, green economy, economic reforms, international experience, investment climate, digital economy, public-private partnership, innovation, economic stability, macroeconomic policy.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы использования передового опыта развитых и развивающихся стран в совершенствовании государственной экономической политики с научной, теоретической и практической точек зрения. В частности, изучаются международные опыты государственного регулирования экономики, перехода к «зеленой» экономике, улучшения инвестиционного климата, развития цифровой экономики и расширения государственно-частного партнерства. По результатам исследования обосновывается важность углубления институциональных реформ, расширения конкурентной среды в экономике, поддержки инновационной деятельности и обеспечения экологической устойчивости для совершенствования экономической политики Узбекистана. Также разработаны практические предложения и рекомендации по совершенствованию экономической политики Узбекистана.

Ключевые слова: государственная экономическая политика, «зеленая» экономика, экономические реформы, международный опыт, инвестиционный климат, цифровая экономика, государственно-частное партнерство, инновации, экономическая стабильность, макроэкономическая политика.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti koʻp jihatdan davlatning samarali iqtisodiy siyosat yuritishiga bogʻliq. Davlat iqtisodiy siyosati mamlakatning barqaror iqtisodiy oʻsishini



ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda raqobatbardosh iqtisodiyot shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois davlatning iqtisodiy siyosatini takomillashtirish jarayonida rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotida yashil iqtisodiyotga o'tish, raqamlashtirish, innovatsion rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash kabi yo'nalishlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlariga aylanmoqda. Ushbu yo'nalishlarda ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy iqtisodiyotga moslashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda davlatning tartibga soluvchi roli, bozor mexanizmlarini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, investitsion muhitni yaxshilash kabi omillar muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada davlatning iqtisodiy siyosatini takomillashtirishda xalqaro tajribalarni o'rganish hamda ularni milliy iqtisodiyotga joriy etishning ilmiy asoslari yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish masalalari ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish nazariyasi klassik iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik keynschilik nazariyasida rivojlantirilgan.

Ko'plab xorijiy olimlar, jumladan, P. Samuelson hamda J. M. Keynes davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirishda innovatsion rivojlanish va yashil iqtisodiyotga o'tish muhimligini ta'kidlagan. Ularning fikricha, davlat iqtisodiy siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga ekologik muammolarni hal etishga ham qaratilishi lozim.

Mahalliy iqtisodchi olimlar Shodmonov Sh. Sh. hamda G'ofurov U. V. tomonidan ham davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish masalalari keng o'rganilgan. Ular iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Qolaversa, ushbu olimlar fikriga ko'ra, davlat iqtisodiy siyosati bozor mexanizmlarini tartibga solish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan ham davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish bo'yicha qator tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yashil iqtisodiyotga o'tish, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash kabi masalalar muhim o'rin egallaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida davlatning iqtisodiy siyosatini takomillashtirishda xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy iqtisodiyotga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida turli ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy jarayonlarning murakkabligi va ko'p omilliligi inobatga olinib, tizimli yondashuv asosida tahlil olib borildi.

Tadqiqot metodologiyasining asosini tizimli tahlil usuli tashkil etib, davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy elementlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Ushbu usul yordamida iqtisodiy siyosatning investitsiya muhiti, yashil iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot va davlat-xususiy sheriklik kabi asosiy yo'nalishlari alohida tahlil qilindi.

Shuningdek, taqqoslash usulidan foydalanilib, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy siyosatni amalga oshirish tajribalari o'rganildi. Mazkur yondashuv orqali Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Yaponiya kabi davlatlarning iqtisodiy siyosati tahlil qilinib, ularning iqtisodiy rivojlanish natijalari o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil usuli ham qo'llanildi. Xususan, xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, BMT va boshqa tashkilotlar ma'lumotlari asosida iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar asosida davlat iqtisodiy siyosatining samaradorligi baholandi.

Bundan tashqari, iqtisodiy tahlil usuli yordamida davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari aniqlab olindi. Mazkur usul orqali iqtisodiy siyosatning iqtisodiy o'sish, investitsiya muhiti va bandlik darajasiga ta'siri baholandi.

Shuningdek, ilmiy umumlashtirish usuli asosida tadqiqot natijalari umumlashtirilib, iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy rivojlanishga erishgan mamlakatlar davlat iqtisodiy siyosatini samarali tashkil etish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlagan. Xususan, rivojlangan davlatlarda iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari sifatida innovatsion rivojlanish, yashil iqtisodiyot, investitsiya muhitini yaxshilash hamda raqamli iqtisodiyotga o'tish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar strategiyasiga yuzlansak, davlat iqtisodiy siyosati iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Masalan, Germaniyada yashil iqtisodiyotga



o'tish siyosati doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kengaytirildi. Natijada energiya samaradorligi oshdi va ekologik muvozanat ta'minlandi.

Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiyotga o'tish orqali mamlakat yuqori texnologiyalar ishlab chiqarishda yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Davlat tomonidan innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash natijasida iqtisodiy o'sish sur'atlari barqarorlashdi.

Singapur iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri investitsiya muhitini yaxshilash hisoblanadi. Ushbu mamlakatda biznes yuritish uchun qulay sharoitlar yaratildi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori darajada ta'minlandi.

Yaponiya tajribasi esa raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu mamlakatda ishlab chiqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalar joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshdi.

So'nggi yillarda ko'plab davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tishni iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishi sifatida belgilamoqda. Yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, energiya samaradorligi oshadi hamda iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi. Shu sababli ko'plab mamlakatlar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirmoqda.

J. M. Keyns iqtisodiy inqiroz sharoitida davlat iqtisodiyotga faol aralashishi zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, iqtisodiyot o'z-o'zidan muvozanatga kelmaydi va davlat iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish zarur.

Dani Rodrik esa iqtisodiy rivojlanish mamlakatlarning institutsional rivojlanishiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, davlat tomonidan olib boriladigan iqtisodiy siyosat milliy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlariga xizmat qilishi lozim.

Mahalliy olimlar fikriga ko'ra, davlat iqtisodiy siyosati bozor mexanizmlarini tartibga solish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, investitsiya muhitini yaxshilash iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, soliq tizimini soddalashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash investitsiya hajmining oshishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribada investitsiya muhitini yaxshilash natijasida iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi ortganligi kuzatilgan.

O'tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi natijalarga erishildi: davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, yashil iqtisodiyotga o'tish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi, investitsiya muhitini yaxshilash iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi, innovatsion rivojlanish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi hamda raqamli iqtisodiyot mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirishda xalqaro tajribalarni milliy iqtisodiyotga moslashtirish zarurligi aniqlandi. Ushbu tajribalarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Mahalliy iqtisodchi olim Sh. Shodmonovning fikriga ko'ra, davlat iqtisodiy siyosati iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni rag'batlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Xorijiy olim P. Samuelson esa davlat iqtisodiy siyosati bozor mexanizmlarining samarali ishlashini ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, davlat iqtisodiyotda muvozanatni ta'minlashda muhim tartibga soluvchi rolni bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirishda xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyatga ega.
2. Yashil iqtisodiyotga o'tish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.
3. Investitsiya muhitini yaxshilash iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi.
4. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda davlat iqtisodiy siyosati innovatsion rivojlanish, investitsiya muhitini yaxshilash, yashil iqtisodiyotga o'tish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlarida olib borilmoqda. Mazkur yo'nalishlar iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, bandlik darajasini yaxshilash hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Xususan, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Yaponiya kabi davlatlar tajribasi iqtisodiy siyosatni samarali tashkil etish orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, tadqiqot davomida davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirishda institutsional islohotlar muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Xususan, investitsiya muhitini yaxshilash, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish,



innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari hisoblanadi. Bu borada mahalliy olimlar, jumladan, Sh. Shodmonov va B. Xodiyevlar davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot energiya samaradorligini oshirish, ekologik muvozanatni ta'minlash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashil iqtisodiyot elementlarini joriy etish iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirishda xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy iqtisodiyotga moslashtirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda aholi turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bois iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda xalqaro tajriba asosida samarali mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — London: Macmillan, 1936. — 378 p. (45–52-betlar).
2. Samuelson P.A., Nordhaus W.D. Economics. — New York: McGraw-Hill, 2010. — 744 p. (210–225-betlar).
3. Stiglitz J. Economics of the Public Sector. — New York: W.W. Norton & Company, 2000. — 823 p. (32–41-betlar).
4. Todaro M., Smith S. Economic Development. — Boston: Pearson Education, 2015. — 890 p. (115–130-betlar).
5. Rodrik D. One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth. — Princeton University Press, 2007. — 263 p. (56–63-betlar).
6. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. — 512 b. (289–301-betlar).
7. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. — 420 b. (155–168-betlar).
8. Alimov O.T. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish muammolari. — Toshkent: Fan, 2019. — 276 b. (98–112-betlar).
9. World Bank. World Development Report 2022. — Washington DC: World Bank Publications, 2022. — 398 p. (77–92-betlar).
10. IMF. World Economic Outlook. — Washington DC: IMF, 2023. — 260 p. (34–49-betlar).
11. OECD. Green Growth Strategy. — Paris: OECD Publishing, 2021. — 312 p. (120–134-betlar).
12. UNDP. Human Development Report. — New York: UNDP, 2022. — 350 p. (90–102-betlar).
13. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston statistik axborotnomasi. — Toshkent, 2023. (88–94-betlar)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>